

IPAK YO'LI - SHARQ SIVILIZATSIYASINI SHAKLLANTIRGAN TARIXIY TIZIM SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976293>

Otebayeva Sanobar Erkebay qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti

Ilmiy rahbar: Arislanbayeva Zoya Ernazarovna

O'zDSMI dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ipak yo'lining tarixiy-sivilizatsion ahamiyati, uning Sharq madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani va ma'naviy hayotini shakllantirishdagi roli ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada Ipak yo'lining madaniy almashinuv, iqtisodiy integratsiya, ilmiy taraqqiyot va global sivilizatsion muloqot maydoni sifatidagi o'rni yoritiladi. Bu tizim Sharq sivilizatsiyasi rivojida yadroviy omil bo'lgani isbotlab beriladi.

Kalit so'zlar: Ipak yo'li, madaniyat, sivilizatsiya, madaniy muloqot, madaniy almashinuv.

ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ КАК ИСТОРИЧЕСКАЯ СИСТЕМА, ФОРМИРУЮЩАЯ ВОСТОЧНУЮ ЦИВИЛИЗАЦИЮ

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ исторического и цивилизационного значения Шелкового пути, его роли в формировании культуры, экономики, науки и духовной жизни Востока. В статье подчеркивается роль Шелкового пути как пространства для культурного обмена, экономической интеграции, научного прогресса и глобального цивилизационного диалога. Доказано, что эта система являлась ключевым фактором развития восточной цивилизации.

Ключевые слова

Шелковый путь, культура, цивилизация, культурный диалог, культурный обмен.

SILK ROAD AS A HISTORICAL SYSTEM FORMING EASTERN CIVILIZATION

Annotation

This article provides a scientific analysis of the historical and civilizational significance of the Silk Road, its role in shaping the culture, economy, science and spiritual life of the East. The article highlights the role of the Silk Road as a space for cultural exchange, economic integration, scientific progress and global civilizational dialogue. It is proven that this system was a core factor in the development of Eastern civilization.

Keywords

Silk Road, culture, civilization, cultural dialogue, cultural exchange.

Kirish. Ipak yo'li insoniyat tarixidagi eng ulkan kommunikatsion tizimlardan biri bo'lib, Yevrosiyaning Sharq va G'arbini ming yillar davomida bog'lab kelgan. U faqat savdo yo'li emas, balki madaniyatlar, g'oyalar, dinlar, ilm-fan va san'at almashinuvining strategik arteriyasi sifatida ham xizmat qilgan. Shu jihatdan, Ipak yo'li Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi mezon vazifasini bajargan. Uning ta'siri Markaziy Osiyo, Xitoy, Hind, Eron va Sharqiy Osiyo xalqlarining tarixiy tafakkuri va ma'naviy merosida chuqur aks etgan.

Ipak yo'lining geosiyosiy va geomadaniy shakllanishi. Ipak yo'lining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II asrlardan boshlanib, Xitoyning Xan sulolasi davrida tizimli yo'l sifatida shakllangan. Markaziy Osiyo hududi – Farg'ona, So'g'd, Buxoro, Samarqand, Xorazm – yo'lining asosiy tamir vazifasini bajargan. Bu hududlar nafaqat tranzit, balki mustaqil sivilizatsion markazlar sifatida ham jahon tarixida muhim o'rin tutgan. Markaziy Osiyo – Ipak yo'lining mustaqil sivilizatsion markazlari sifatida, jumladan, Farg'ona – otchilik madaniyati va metall ishlash markazi, keyinchalik Farg'ona Ipak yo'li orqali Xitoy-Boqtriya-So'g'd o'rtasidagi savdo-siyosiy aloqalarda bosh markazga aylangan.

So'g'd – diplomatiya, savdo va yozuv sivilizatsiyasi markazi dinlar tarqalishida xizmat qildi. Masalan, Manixeylik, buddaviylik va zardushtiylilik So'g'd orqali Turkiston va Xitoyga kirgan.[1]

Buxoro – ilm-fan, islom madaniyati va hunarmandchilik markazi IX–XII asrlarda Islom sivilizatsiyasining ma'rifat va ilm markaziga aylanib, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ibn Sino kabi ulug' muhaddis va faylasuflar yashab ijod qilgan;

Ipak yo'lidagi hunarmandchilik markazi Buxoro zargarlik va ipakchilik mahsulotlari G'arb va Sharq bozorlarida yuqori baholangan; Atlas, adras, mis va kumushdan qilinadigan buyumlar savdoda asosiy tovar bo'lgan.

Samarqand – iqlim, ilm va me'morlik sivilizatsiyasi markazi Ipak yo'lidagi eng qadimiy va nufuzli markazlardan biri bo'lib: Rim-Xitoy aloqalarini bog'lagan

markaz Samarqand orqali tom ma'noda ikki ulkan madaniyat muloqot qilgan. Ilm va madaniyat markazi (IX–XV asrlar) Ulug'bek madrasasi va rasadxonasida astronomiya, matematika maktablari rivojlangan; Ulug'bekning "Ziji jadidi Kurugoni" jahon fanidan o'rin olgan. Me'morlik markazi Afrosiyob, Registon, Ulug'bek madrasasi, Shohizinda ansambli – Sharq arxitekturasining mukammal namunasi. Qog'oz ishlab chiqarish markazi (Samarqand qog'ozi). [2]

VIII asrdan boshlab butun Sharq va Yevropa kitobchiligiga ta'sir qilgan.

Xorazm – matematika, geografiya va davlatchilik maktabi Xorazm mustaqil sivilizatsion maktab sifatida: Ilm-fan markazi bo'lib, Muhammad al-Xorazmiy – algebrani yaratgan; Beruniy – geografiya va geologiyani asoschilaridan; "Xorazm matematiklar maktabi" dunyo fanini rivojlantirgan. Davlatchilik va huquq maktabi Xorazmshohlar davlati markazlashgan boshqaruv tizimi bilan ajralgan. Iqtisod va savdo markazi Amudaryo orqali Xorazm fors, turk va rus bozorlari bilan bog'langan. Madaniy uyg'unlik markazi Xorazm buddizm, islom va mahalliy e'tiqodlarning uyg'un madaniy muhitini yaratgan.[3]

Bu markazlar, Markaziy Osiyo hududlari Ipak yo'lida faqat tranzit emas, balki ilm-fan, savdo, din, san'at, me'morlik va davlatchilik sohalarida mustaqil sivilizatsion markazlar sifatida shakllangan. Bu markazlar jahon madaniyati va Sharq sivilizatsiyasining umumiy rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

Iqtisodiy integratsiya: savdo va xunarmandchilik rivoji. Ipak yo'li Sharq sivilizatsiyasi iqtisodiyotining tarkibi va dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Asosiy tovarlar: ipak, nefrit, yog'och va qimmatbaho toshlar, qo'g'irchoqlar va san'at buyumlari, hunarmandchilik mahsulotlari, ziroatchilik mahsulotlari.

Savdo jarayonlari iqtisodiy ixtisoslashuvni yuzaga keltirgan: So'g'd – diplomatiya va savdo markazi, Xitoy – ipak va qog'oz; Hind – yong'oq, hanut, paxta; Markaziy Osiyo – metall, keramika, atir va shisha buyumlar markaziga aylangan.

Ipak yo'li – madaniy almashinuv maydoni. Madaniy muloqot Ipak yo'lining eng muhim vazifalaridan biri bo'lgan. Uning Sharq va G'arb o'rtasida din, san'at, musiqa va g'oyalar harakati bo'yicha kuyidagi misollarni keltirishimiz mumkin.

1. Buddaviylikning Markaziy Osiyo orqali Sharqiy Osiyoga tarqalishi Xitoyga kirib borishida Markaziy Osiyo hal qiluvchi o'rin tutgan. Bu jarayon aniq tarixiy dalillar bilan tasdiqlanadi. Masalan, Kucha (Qucho) va Xotan – Markaziy Osiyodagi buddaviylik markazlari bo'lib, u yerdan tarjimon-monarxlar Xitoyga budda matnlarini olib kirgan.

Kumarajiva (344–413) – Kuchoda tug'ilgan mashhur budda tarjimoni. U budda sutralarini xitoy tiliga tarjima qilgan va Xitoy buddaviy falsafasiga asos solgan. Dunhuandagi (Ming'ar) buddaviy g'orlar – rassomchilik uslublari So'g'd,

Baqtriya va Kucha ta'sirida yaratilgan. Xitoydagi Tyan-Shan yo'li orqali buddaviylikning asosiy kirish nuqtasi Markaziy Osiyo bo'lgani manbalarda qayd etilgan. Markaziy Osiyo buddaviylikning Xindukushdan turib Xitoy va Koreyaga kirishida asosiy ko'prik bo'lgan.

2. Islomning Sharqiy Turkiston va Xitoyga tarqalishi VIII–X asrlarda Markaziy Osiyo islom sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy markaziga aylangach, bu din Ipak yo'li orqali Sharqiy Turkistonga va u yerdan Xitoyga kirib borgan. Bunga: 744–840-yillardagi Uyg'ur qag'anati davrida Markaziy Osiyodan borgan arab va fors ulamolari Turfan, Qoshg'ar va Xotan mintaqalarida islom ta'limotiga asos solgan. Satuq Bog'raxon (X asr) – Qaroxoniylar sultoni – islomni qabul qilgan birinchi turkiy podshoh bo'lib, Qoshg'ar va Yarkendda islomni asosiy dinga aylantirgan. Qoshg'arlik Mahmud Koshg'ariy – “Devonu lug'atit turk” asarida islom va turkiy madaniyat uyg'unligi haqida ma'lumot keltiradi. Arxeologik topilmalar (Qoshg'ar, Turfan) IX–XII asrlardagi masjid, madrasa, arabiy yozuv namunalarining keng tarqalganligini misol tariqasida aytib o'tganimiz joyiz[4].

Islom Sharqiy Turkistonga to'g'ridan-to'g'ri Markaziy Osiyodan kirgan va mintaqaning madaniy sharoitiga katta ta'sir ko'rsatgan.

3. Zardushtiylik va Manixeylikning turli mintaqalarga tarqalishi Markaziy Osiyo, ayniqsa So'g'd va Baqtriya hududlari zardushtiylik va manixeylikning ko'p asrlik markazlari bo'lgan. Masalan, Xorazm va Baqtriya – zardushtiylikning ilk markazlaridan hisoblanadi. Avesta matnlari Xorazmda shakllangani haqida ilmiy fikrlar mavjud. So'g'd savdogarlari zardushtiylik marosimlari va yozma matnlarini Gobi cho'li, Xitoy va Chjou sulolalari hududiga yetkazgan[5].

Turfanda topilgan zardushtiylikka oid olovxonalar (atashkada) Ipak yo'li orqali dinning tarqalganini tasdiqlaydi.

Manixeylikka esa So'g'd tijorat tarmoqlari orqali Xitoy, Turkiston, Mongoliyaga kirganligi.

Uyg'ur qag'anati (VIII asr) manixeylikni davlat dini sifatida qabul qilgan – bu Ipak yo'li orqali g'oyalar tez tarqalishi yorqin misol bo'la oladi. Turfan va Dunhuanda topilgan manixeylik qo'lyozmalari (so'g'd, uyg'ur yozuvida) shu ta'sirning isbotidir. Zardushtiylik va manixeylik Ipak yo'li tarmoqlari orqali Markaziy Osiyodan Xitoy va Turkistonga keng yoyilgan.

4. Musiqa va san'at uslublarining xalqlar o'rtasida tarqalishi Ipak yo'li orqali xalqlar nafaqat din, balki musiqa va san'at uslublarini ham bir-biriga uzatgan. Masalan, Xitoy saroy orkestrlarida (Tan sulolasi davri) So'g'd va Kucha musiqachilari xizmat qilgan. Tan sulolasi saroy qog'ozlarida “Su-te” (So'g'd) kuylari qayd etilgan[6].

Uyg'urlar orqali Markaziy Osiyo musiqiy an'analari Mandjuriya va Koreyaga kirib borgan. Markaziy Osiyo cholg'ulari (nay, ud, doira) Xitoy va Yaponiya saroy musiqa tizimlariga kirgan. San'at uslublari bo'yicha Panjikent freskalaridagi kompozitsion uslub Dunxuan budda g'orlari rasmlariga kuchli ta'siri; Markaziy Osiyodagi So'g'd terakkari uslubi (ganchkorlik, naqshlar) Xitoydagi Tan sulolasi me'morligida aks etilishi; Hindistondan kelgan budda ikonografiyasi Markaziy Osiyo orqali Xitoy, Koreya, Yaponiyaga o'zgargan shaklda kirganligini aytibo'tish joyiz.

Ipak yo'li musiqa va san'atning trans-sivilizatsion muloqotini ta'minlagan.

5. Xalq og'zaki ijodi, mifologiya va urf-odatlarining tarqalishi Ipak yo'li xalqlar o'rtasida afsona, epik dostonlar va urf-odatlarining tarqalishida ham katta rol o'ynagan. Jumladan, "Alpomish", "Manas", "Shohnoma" motivlari Xitoy, Mo'g'uliston va Turfan hududlariga so'g'd va turkiy savdogarlar orqali kirgan[7].

Xitoy manbalarda turkiy qahramonlik eposi "Gochlyuk", "Torkoch" kabi syujetlar tilga olingan.

Navro'z bayramining marosim va ramzlari Markaziy Osiyodan Eron, Kavkaz va Xitoyga tarqalgan.[8]

Demak, Ipak yo'li tarixdagi eng yirik madaniy almashinuv tizimi bo'lib, u orqali: buddaviylik Markaziy Osiyo orqali Xitoyga, islom Markaziy Osiyodan Sharqiy Turkistonga, zardushtiylik va manixeylik So'g'd orqali Xitoyga, musiqa va san'at uslublari Yevrosiyo bo'ylab, mifologiya va urf-odatlar xalqlar o'rtasida keng tarqalganligininn guvoni bo'lamiz. Bu jarayon Markaziy Osiyoni sivilizatsion ko'priq va madaniy muloqot markazi sifatida namoyon bo'lib, Ipak yo'li xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirgan, ularda muloqot, bag'rikenglik va madaniy uyg'unlikni shakllantirgan. Ilm-fan va texnologiyalar tarqalishi. Ipak yo'li orqali: qog'oz va chop etish texnologiyasi (Xitoydan); astronomiya va matematika (Markaziy Osiyodan); tibbiyot va farmakologiya (Hind va Arabdan); arxitektura va muhandislik g'oyalari turli sivilizatsiyalar o'rtasida tarqalgan. Samarqand va Buxoro kabi markazlar IX-XII asrlarda ilm-fan markazlariga aylangan. Ipak yo'li – ma'naviy rivojlanish tizimi. Ipak yo'li faqat iqtisodiy-siyosiy emas, balki ma'naviy hayotni shakllantiruvchi fenomen bo'lgan. Ularda Ipak yo'li faqat savdo yo'li emas, balki madaniy-milliy taraqqiyot, ilm-fan, mafkura va ma'rifat tarqalishining o'ziga xos tizimi bo'lgani yoritiladi. U orqali: axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy-ruhiy ta'limlar, san'at ramzlari bir sivilizatsiyadan ikkinchisiga o'tgan. Jumladan, turli dinlar va e'tiqodlarning tarqalishi Ipak yo'lidagi ma'naviy muloqotning yorqin namunasidir. Masalan, Islom sivilizatsiyasi orqali ilm-fan, axloq, huquq va ma'rifat qadriyatlari keng ommalashgan. Zardushtiylik va manixeylik orqali ahloq, ezgulik-yovuzlik, borliq haqidagi falsafiy qarashlar tarqalgan.

Ilm-fan va bilimlar almashinuvida Xitoydagi qog'oz yozish texnologiyasi Markaziy Osiyo va Yevropaga yetgan – bu ma'naviy rivojlanishdagi eng katta inqiloblardan biri.

Astronomiya va matematika yutuqlari (Abu Rayhon Beruniy, Axmad Farg'oniy) Ipak yo'li orqali G'arbga yetgan.

Tibbiyot va farmakologiya bilimlari (Ibn Sinoning "Tib qonuni") Sharq-G'arb madaniy haddini birlashtirgan. San'at va estetik qadriyatlarning tarqalishi Markaziy Osiyo rubobi, Xitoy pipasi, Hindiston ragasi elementlari o'zaro ta'sir ko'rsatgan. Uslubiy ta'sirlar: Buxoro, Samarqand, Chin, Hindiston bozakorlik san'atidagi ornamentlar bir-birini boyitgan. Arxitektura uslublari: Ko'p gohda budda payalari, zardushtiy ibodatxonalari va islom me'morchiligi elementlari bir mintaqadan ikkinchisiga o'tgan.

Ma'rifat va tarbiyaviy g'oyalarning tarqalishi Hikmatlar, maqol-matallar, axloqiy ta'limotlar turli mintaqalarning xalqlari o'rtasida almashgan. Sharq mutafakkirlari asarlarining tarjimasi (Konfusiylar, Loy Szi, Navoiy, Jomiy, Forobiy, Aristu, Platon) Ipak yo'lidagi ma'naviy tarmoqning asosini tashkil qilgan. Sufiylik ta'limotining kengayishi (Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya) – ma'naviy komillik g'oyalari minglab sayohatchilar, savdogarlar orqali tarqalgan.

Madaniy muloqot va bag'rikenglik muhiti Ipak yo'li shaharlari (Samarqand, Buxoro, Kesh, Xorazm, Qashg'ar) turli til, millat, din va madaniyat vakillarining tinch hamjihat yashash makoni bo'lgan. Bag'rikenglik va hamjihatlik – Ipak yo'li madaniy tizimining asosiy ma'naviy qadriyati sifatida shakllangan. Ko'p madaniyatli muhitda diplomatiya, muzokara, tinchlik madaniyati rivoj topgan.

Savdo bilan birga ma'naviyatning ham tarqalishi savdogarlar faqat tovar emas, balki g'oya, bilim, urf-odat, san'at ifodalarini ham yetkazgan. Karavonsaroylar – nafaqat iqtisodiy markaz, balki ilm-ma'rifiy muloqot nuqtalari bo'lgan. [9]

Demak, Ipak yo'li – bu Global sivilizatsion tarmoq bo'lib, uning orqali: dinlar, ilm-fan, san'at va estetika, axloq va ma'naviy qadriyatlar bir-birlari bilan chatishib, umuminsoniy ma'naviyat rivojlangan.

Sharq sivilizatsiyasidagi "uyg'unlik", "muvofiglik", "ma'naviy barqarorlik" kabi tushunchalar ko'p jihatdan madaniy almashinuvning uzoq tarixiy tajribasi bilan bog'liq.

Ipak yo'lining sivilizatsion ahamiyati. Ipak yo'li Sharq sivilizatsiyasini quyidagi jihatlardan bilan shakllantirdi:

- o'zaro ta'sir va muloqot sivilizatsiyasini yaratdi;
- qit'alar o'rtasida ishonch va diplomatiya madaniyatini yuzaga keltirdi;
- xalqaro savdo va xunarmandchilikni integratsiyalashtirdi;

- ilm-fan va texnikada inson intellektual salohiyatining o'sishiga xizmat qildi;
- ma'naviy hayotda bag'rikenglik va madaniyatlar muloqoti an'anasini mustahkamladi.

Bundan, quyidagi xulosani chiqarish mumkin. Ipak yo'li Sharq sivilizatsiyasining tarixiy shakllanishi va ma'naviy-madaniy taraqqiyotida markaziy omil hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy yo'l, balki madaniy, ma'rifiy va sivilizatsion tizim bo'lib, xalqlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlab, ulkan madaniy merosni yaratdi. Ipak yo'li hozir ham turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi hamkorlik, tinchlik va integratsiyaning simvoli sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baumer, C. *The History of Central Asia*. London: I.B. Tauris.
2. Arislanbayeva, Z. Y. (2023). Zamonaviy dunyoda falsafaning o'rni. *Экономика и социум*, (7 (110)), 57-61.
3. Arislanbayeva, Z. Y. (2022). Globallashuv davridagi milliy madaniyat. *Экономика и социум*, (11-1 (102)), 27-30.
4. Arislanbayeva, Z. Y. (2022). Internet Content Control: A Necessity Or A Dangerous Prospect. *Journal of Positive School Psychology*, 6(7), 5184-5189.
5. Бекбосынова, С., & Арисланбаева, З. Е. (2022). Проблема образования в узбекистане и пути их решения. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 418-422.
6. Arislanbaeva, Z. E. (2020). The relationship between the development of science and technology in the history of civilization. *Мировая наука*, (5 (38)), 6-9.
7. Арисланбаева, З. Е. (2024). НАЦИОНАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *Экономика и социум*, (9 (124)), 442-445.
8. Arislanbayeva, Z. E. (2021). IJTIMOYIY FALSAFA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 221-224.
9. Arislanbaeva, Z., & Abdujabbarova, M. (2025). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING O'RNI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (2), 228-234.
10. Yusupaliyeva, D. Q. (2024). NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH, ASRASH VA TARG'IB ETISH MASALALARI. *Inter education & global study*, (4 (1)), 334-342.
11. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.

12. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
13. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). SPECIFIC FEATURES AND CHALLENGES OF TEACHING AMATEUR CHOREOGRAPHY TO STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(10), 95-103.
14. Shermanov, E. (2021). Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization.
15. Shermanov, E. U. (2025). DAXLDORLIK FAZILATI ORQALI TALABALARNING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: STRATEGIYA VA MEKANIZMLAR. *Inter education & global study*, (3), 596-603.
16. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
17. Shermanov, E. (2024). Talabalarning madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
18. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
19. Шерманов, Э. (2022). ИНСОН-ЎЗ ХАЛҚИ ТАҚДИРИГА ЛОҚАЙДЛИГИ ИЖТИМИЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА. *Scientific progress*, 3(6), 64-70.
20. Shermanov, E. U. Madaniy Kompetentlikni Rivojlantirishda Daxldorlik Fazilatining O'rnini Va Ta'siri. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali*, 676322.
21. Jumanazarov, Z. (2025). THE ROLE OF CHILDHOOD CULTURAL EXPERIENCES IN SPIRITUAL SECURITY ISSUES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 657-662.
22. Kalkanatov, A., Makhamatdinov, S., & Urazbaev, I. (2023). Activities of new Karakalpakstan cultural centers: Reform and analysis. *Art and Design: Social Science*, 3(1), 1-4.
23. Abatbaevna, S. G., & Nazarbaevich, Q. A. (2023). History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan.
24. Xolmo'Minov, M. M., & Qolqanatov, A. (2022). O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLİYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN). *Oriental Art and Culture*, 3(1), 281-290.
25. Kolkanatov, A. (2023). IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2, 67-69.

26. QOLQANATOV, A. (2024). MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN. *News of UzMU journal*, 1(1), 1.
27. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 65-70.
28. Nazarbaevich, Q. A. (2025). FORMATION OF THEORY AND PRACTICE OF CREATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF CULTURE AND ART. *SHOKH LIBRARY*, 1(13).
29. Kolkhanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. *Turkology*, (2).
30. Qolqanotov, A. (2026). NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(2), 86-91.